



## KONSTITUTSIYANI O'ZGARTIRISH TARTIBI: DUNYO VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.

**Parmonova Begoyim Abdivoxid qizi**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti yuridik fakulteti  
1-bosqich talabasi

Parmonovabegoyim@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15396118>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05- May 2025 yil

Ma'qullandi: 10- May 2025 yil

Nashr qilindi: 13- May 2025 yil

### KEY WORDS

*O'zbekiston va dunyo Konstitutsiyalari, Oliy Majlis, Senat va Qonunchilik palatasi, Konstitutsiyaga qattiq va yumshoq tartibda o'zgartirish tartibi, ta'sis yig'ilishi.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqola Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tushunchasi, dunyo bo'yicha Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi, dunyo tajribasida tub burilish davrida ko'pgina davlatlarda konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirilganligi, ushbu davirda senator va deputatlar, keng jamoatchilik, xalq bilan maslahat qilish, jahon Konstitutsiyasini o'rganish, tahlil qilish va bizning asosiy qonunimizni takomillashtirish masalasini ham ko'rib chiqiladi va Konstitutsiyalarga o'zgartirish kiritish tartibining murakkabligiga qarab bo'linishi ya'ni qattiq yoki yumshoq tartibda o'zgartirish kiritish tartibu yoritib berilgan.*

Bilamizki, 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O'zbekiston Respublikasida yangi tahrirdagi Konsititutsiya qabul qilindi va qabul qilishda ko'plab taklif va fikrlar tinglandi, ushbu fikrlarni inobatga olgan holda konstitutsiyaning 65 foizi yangilandi va 1-maydan e'tiboran kuchga kirdi. Bunga qadar 1992-yilda qabul qilingan konstitutsiyaga jami 15 marotaba o'zgartirish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgartirishlarning ko'lamini kattaligi sababli hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, moddalar soni 128 tadan 155 taga, normalar soni esa 275 tadan 434 taga oshdi. Shuningdek Konstitutsiyaning 1-moddasidagi " O'zbekiston – suveren demokratik respublika" jumlasini quyidagicha o'zgartirildi: O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deya e'tirof etildi. Bundan tashqari eng katta o'zgartirishlardan biri bu advakatura bobi qo'shilganligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining saylanadigan muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi

«Yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishi lozim», — deya ta'kidlab o'tdilar konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida davlatimiz raxbari Shavkar Mirziyoyev.

Dunyo miqyosida esa oxirgi 30 yil ichida 100 ga yaqin davlatlarda konstitutsiyaviy islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilgan, 57 ta davlat o'zining yangi konstitutsiyalarini qabul qilgan.

Darhaqiqat, Konstitutsiya o'zgarmas va qotib qolgan hujjat emas, u jamiyat va davlatning o'zgarishi oqibatida, insonlarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'zgartirib boriladi. AQSH Mustaqillik deklaratsiyasi asoschilaridan biri Thomas Jeffersonning qiziq bir mulohazasi diqqatimizni e'tiborga tortadi, ya'ni "Har bir avlod o'zining oldingidan mustaqil bo'lib o'z baxtini ta'minlashi uchun eng mos deb hisoblagan boshqaruv shaklini tanlash huquqiga ega. Shu sababli, uning fikricha taxminan, har 19 yoki 20 yilda konstitutsiyalar o'zgarishi kerak, negaki shu vaqt orasida qariyb aholining yarim qismi yangilanadi va amaldagi konstitutsiya uning qiziqishlarini to'liq qamrab ololmaydi deydi"<sup>1</sup>. Xorijiy mamlakatlarga qaraydigan bo'lsak, hozirgi kunda dunyo bo'yicha 500 dan ortiq konstitutsiya mavjud va ulardan 200 tasidan ko'proq mustaqil davrlarning konstitutsiyasi 300 ga yaqini esa federatsiya subyektlarining konstitutsiyalari hisoblanadi<sup>2</sup>.

Dunyo mamlakatlarining hayotiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, konstitutsiyalar quyidagicha qabul qilinishi mumkin:

1. Konstitutsiya davlat hokimiyatining oliy vakillik organi – parlament

tomonidan ishlab chiqiladi. Ayrim hollarda umumxalq muhokamasidan o'tgandan so'ng qabul qilinadi (Misol uchun. Oz'bekistonda Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadi). Ushbu normani to'liqroq yoritadigan bo'lsak Oz'bekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 94-moddasi 1-bandida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlariga kiradi deb qayd etilgan. Bundan tashqari Konstitutsiyaning so'ngi moddasi ya'ni 155-modda 1-qismida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan konstitutsiyaviy qonun yoki O'zbekiston Respublikasining referendum bilan kiritiladi.

2. Konstitutsiya maxsus ta'sis etilgan davlat organi tomonidan ishlab

chiqiladi va qabul qilinadi (Xitoy, Mozambik, Vetnam va Gruziyada Ta'sis yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi). Referendum yo'li bilan bevosita xalq tomonidan qabul qilinadi (Fransiya, Rossiya, Ispaniya, Italiya, Shvetsariya va boshqa davlatlarda). Ushbu turdagi konstitutsiya qabul qilishda Konstitutsiyani qabul qilishda maxsus ta'sis organi (masalan, Konstitutsiyaviy Assambleya) muhim ro'l o'ynaydi, Huquqshunoslar, siyosatchilar va ekspertlar ishtirokida konstitutsiya loyihasi shakllantiriladi. Turli siyosiy kuchlar, fuqarolar jamiyati va ekspertlar fikrlari hisobga olinadi. Lekin yakuniy qaror referendum yoki parlament tomonidan qabul qilinadi. Ushbu misollardan ham ko'rinib turibdiki, har qanday davlatlarda konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirilishi ijobiy holat hisoblanar ekan. Tahlillar shuni ko'rsatayotiki, 10 ta davlatda doimiy tarzda konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib borilmoqda. Meksika, Yangi Zelandiya, Braziliya, Shveytsariya, Avstriya, Isroil, Chili, Kolumbiya, Gruziya hamda Hindiston shular jumlasidandir<sup>3</sup>. Shu jumladan O'zbekiston tarixida ham bir nechta konstitutsiyalar qabul qilingan va ushbu konstitutsiyalar o'z davridagi shart-sharitlar va vaziyatlar bilan o'lchanadi.

Jahon konstitutsiyaviy amaliyotida Konstitutsiyalar o'zgartirish kiritish tartibining murakkabligiga qarab "yumshoq" (fleksibil) va "qattiq" (rigid) konstitutsiyalarga ajratiladi.

Yumshoq konstitutsiya — oddiy qonunlar bilan bir xil tartibda yoki ularga nisbatan biroz murakkabroq tartibda o'zgartirilishi mumkin bo'lgan konstitutsiyadir. Bunday konstitutsiyalar ko'pincha yozilmagan (an'anaviy) yoki qisman yozma shaklda namoyon bo'ladi.

Yumshoq konstitutsiyalar quyidagi kabi xususiyatlarga ega bo'ladi:

1. Konstitutsiyani o'zgartirish uchun maxsus protseduralar talab qilinmaydi, oddiy qonun chiqarish organi (parlament) tomonidan qabul qilingan qaror yetarli.
2. Ba'zi yumshoq konstitutsiyalar (masalan, Buyuk Britaniyaniki) asosan an'analar, sud qarorlari va qonunlar majmuasidan iborat.
3. Ijtimoiy-siyosiy o'zgarishi bilan konstitutsiyaviy normalar ham tez o'zgartiriladi.
4. Oddiy qonunlar bilan konstitutsiya bir xil darajada hisoblanadi, shuning uchun ular bir-biriga zid bo'lishi mumkin.

Keltirilgan davlatlar qonunchiligida tahlil qilishimiz mumkin:

Buyuk Britaniya — rasmiy yozma konstitutsiyasi yo'q, asosan an'analar, parlament qonunlari va sudlar qarorlariga tayanadi.

Yangi Zelandiya — konstitutsiyaviy hujjatlar oddiy qonunlar bilan bir tartibda o'zgartiriladi.

Isroil — asosiy qonunlar oddiy ko'pchilik bilan o'zgartirilishi mumkin.

Qattiq konstitutsiya — o'zgartirish uchun maxsus va murakkab tartib talab qilinadigan, oddiy qonunlardan yuqori huquqiy kuchga ega bo'lgan konstitutsiyadir. Bunday konstitutsiyalar ko'pincha to'liq yozma shaklda bo'ladi.

Quyidagicha xususiyatlarda namoyon bo'ladi:

1. Konstitutsiyani o'zgartirish uchun referendum, maxsus ko'pchilik (2/3, 3/4) yoki shtatlar/regionlarning roziligi talab qilinadi

Ba'zi hollarda ikki palatali parlamentning har ikkala palatasining roziligi kerak

2. Barcha qonunlar konstitutsiyaga mos kelishi shart, konstitutsiyaga zid qonunlar konstitutsiyaviy sud tomonidan bekor qilinadi.

3. Tez-tez o'zgartirib bo'lmaydi, bu esa davlat tizimining barqarorligini ta'minlaydi.

4. Konstitutsiyaviy sud yoki boshqa nazorat organlari tomonidan qat'iy himoyalanaadi.

Quyidagi davlatlarda konstitutsiyaviy o'zgartirishlar tartibining namunalari keltirilgan

- AQSh Konstitutsiyasi — o'zgartirishlar uchun Kongressning 2/3 qismi va shtatlarning 3/4 qismi roziligi talab qilinadi.

- Germaniya — Bundestag va Bundesratning 2/3 qismi konstitutsiyani o'zgartirishi mumkin.

- Hindiston — Ba'zi moddalarni o'zgartirish uchun parlamentning maxsus ko'pchiligi va shtatlarning yarmining roziligi kerak.

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — o'zgartirishlar referendum yoki Oliy Majlisning 2/3 qismi ovoz bilan qabul qilinadi (masalan, 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlar referendum orqali tasdiqlangan).

Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish murakkab jarayon bo'lib, mazkur jarayonni tartibga solish qo'shimcha qonunlarga murojaat etishni taqozo etadi. Masalan, Konstitutsiyaga referendum yo'li bilan o'zgartirish kiritish uchun "O'zbekiston Respublikasining referendumi

to'g'risida"gi<sup>4</sup> Qonun talablaridan kelib chiqish lozim. Mazkur Qonunning 1-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining referendumi O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir. Bu Qonunga binoan, referendumga qo'yiladigan masala davlat va jamiyat hayotining eng muhim masalalaridan sanalishi bilan bir qatorda ayrim masalalarga daxldor bo'lmasligi lozim, ya'ni qonunning 2-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini o'zgartirish, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va soliqlar, amnistiya va avf etish, jamoat tartibini, aholi sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha favqulodda va shoshilinch choratadbirlar o'tkazish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish, mansabdor shaxslarni tayinlash va vazifasidan ozod etish masalalari referendum predmeti bo'lishi mumkin emas.

Demak, yuqoridagilar referendum predmeti bo'lmagani kabi, Konstitutsiyadagi bunga taalluqli masalalarga referendum yo'li bilan o'zgartirish kiritish ham mumkin bo'lmaydi. Referendum o'tkazilgach, qabul qilingan qaror Markaziy saylov komissiyasi tomonidan e'lon qilinib va respublikaning butun hududi bo'yicha umum majburiy tusga kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak butun dunyo bo'yicha ma'lum bir vaqt orasida davlatlar o'z konstitutsiyasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritib turadi, chunki ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlarning o'zgarishi davlatlarning yangi qonunlar va me'yorlar ishlab chiqishga majbur qiladi. Bunga fuqarolarning huquqlarini kengaytirish va hokimiyat tizimini takomillashtirishni sabablardan biri qilib olsak bo'ladi. Shu sababli ham O'zbekiston konstitutsiyasiga tez-tez o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi. Ammo dunyoda shunday mamlakat borki 1947-yildan buyon konstitutsiyaga o'zgartirish kiritilmagan, ushbu mamlakat esa Yaponiya. Lekun bu mamlakatda konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish taqiqlangan degani emas. Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tashabbusi Yaponiya parlamenti (National Diet) tomonidan ilgari suriladi. National Diet ikki palatadan iborat: Vakillar palatasi (quyi palata) va Kengashchilar palatasi (yuqori palata)dan iborat bo'lib. Konstitutsiyaviy o'zgartirish taklifi har ikki palatada uchdan ikki (2/3) ko'pchilik ovoz bilan ma'qullanishi shart. Bu juda yuqori ko'rsatkich bo'lib, amalda siyosiy partiyalar orasida keng kelishuvni talab qiladi. Har ikki palatada tasdiqlanganidan so'ng, o'zgartirish umumxalq referendumiga qo'yiladi. Referendumda oddiy ko'pchilik (ya'ni, ovoz berganlarning 50%+1) ma'qullasa, o'zgartirish kuchga kiradi. Ushbu jihatlari bo'yicha Yaponiya tizimi O'zbekiston tizimiga o'xshab ketadi. Ammo shu paytgacha Yaponiyada parlamentning bir biri bilan murosaga kela olmaganligi yoki referendumda yetarli ovoz to'planmaganligi sababli haligacha konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritilmagan. To'g'ri bu tizim konstitutsiyani barqaror saqlashga xizmat qiladi, lekin ayni paytda uni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirishni qiyinlashtiradi. Mening fikrimcha yuqorida aytib o'tilgan jihatlari Yaponiyaning rivojlanishiga va fuqarolarining erkinliklarini poymol qilishga qisman hissa qo'shadi. O'zbekistonda esa, aksincha, konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi nisbatan moslashuvchanroq bo'lib, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlarga tezkor javob qaytarishga imkon beradi. Shu jihatlari bo'yicha O'zbekiston dunyo davlatlarining davlatni boshqarishda yuritadigan siyosatining ba'zi bir xususiyatlari bo'yicha yuqori pog'onalarda turadi. Bundan tashqari o'z fuqarolarining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy huquqlarini amalga oshirish va hozirgi zamonga hos ehtiyojlarini

qondirishga xizmat qiladi. Ammo bu degani komstitutsiyaga tez tez o'zgartirish kiritish ijobiy holat degani ham emas, buning ham ba'zi bir salbiy jihatlari ham bor, bularga misol qilib aytadigan bo'lsak, birinchidan, huquqiy barqarorlikning buzilishi: Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni. Uni tez-tez o'zgartirish yurtdagi huquqiy tizimning barqarorligini buzadi va davlat institutlariga bo'lgan ishonchni kamaytiradi. Ikkinchidan, qonun ustuvorligiga putur yetadi: Konstitutsiya doimiy o'zgarib tursa, boshqa qonunlar ham tez-tez yangilanadi. Bu esa yuridik tizimni noaniq va murakkab holga keltiradi. Vanihoyat eng so'ngsi va eng muhimu bu xalq ishonchini yo'qotadi: Konstitutsiya ko'p o'zgartirilsa, aholi uni jiddiy qabul qilmay qo'yadi. Bu esa siyosiy befarqlik, norozilik va ishonchsizlikni kuchaytiradi. Shu sababli, mening o'ylashimcha har kki tomonni muvozanatda tutish kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ,2023-yil 30-aprel
2. "O'zbekiston Respublikadi referendum togrisida"gi qonun 14.03.2022.
3. O.T.Husanov. Konstitutsiyaviy huquq darslik, 2013-yil Toshkent "Adolat" nashriyoti .
4. .O.T.Husanov. Konstitutsiyaviy huquq darslik, 2024-yil Toshkent "Adolar'nashriyoti.
5. . <https://www.wikipedia.org>
6. <https://www.lex.uz>

